

INGLIZ TILINING GLOBAL TIL SIFATIDA USTUNLIGI VA UNING IFODALANISHI

Turg'unboyeva Soliha

O'zDJTU Sharq filologiyasi fakulteti, Koreys tili yo'nalishi 3- kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola ingliz tilining global ta'lim va ilmiy sohalardagi o'sib borayotgan rolini tahlil qiladi. Universitetlarning akademik dasturlarini ingliz tilida olib borilishi talabalarga xalqaro darajada ta'lim olish imkonini yaratadi va oliy ta'lim muassasalarini jahon ta'lim bozorida raqobatbardosh qiladi. Shu bilan birga, til ekologiyasi konsepsiyasi asosida bir tilning dominatsiyasi boshqa tillarning rivojlanishiga salbiy ta'sir qilmasligi kerakligi ko'rsatiladi. Ingliz tilining mustamlaka tarixidan mustaqil ravishda zamonaviy va global til sifatida o'rganilishi, uni insonlar uchun ilmiy faoliyat va muvaffaqiyat imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, tillar turli ko'rinishi va madaniy merosni qadrlash muhimligi yoritiladi.

Kalit so'zlar: ingliz tili, global til, lingvistik kapital, til ekologiyasi, xalqaro ta'lim

Annotation. This article analyzes the growing role of the English language in global education and academic fields. The implementation of university academic programs in English provides students with opportunities to receive education at an international level and increases the competitiveness of higher education institutions in the global education market. At the same time, within the framework of the language ecology concept, it is emphasized that the dominance of one language should not negatively affect the development of other languages. The study of English as a modern and global language, independent of its colonial past, expands opportunities for individuals in academic activities and achieving success. It also highlights the importance of preserving linguistic diversity and valuing cultural heritage.

Keywords: English language, global language, linguistic capital, language ecology, international education

Аннотация. Данная статья анализирует возрастающую роль английского языка в глобальном образовании и научной сфере. Реализация академических программ университетов на английском языке предоставляет студентам возможность получать образование на международном уровне и повышает конкурентоспособность высших учебных заведений на мировом образовательном рынке. В то же время, в рамках концепции языковой экологии подчеркивается, что доминирование одного языка не должно оказывать негативного влияния на развитие других языков. Изучение английского языка как современного и глобального, независимо от его колониального прошлого, расширяет возможности людей в научной деятельности и достижении успеха. Также отмечается важность сохранения языкового разнообразия и уважения культурного наследия.

Ключевые слова: английский язык, глобальный язык, лингвистический капитал, языковая экология, международное образование

Kirish. Ushbu mavzuning dolzarbligi bugungi globallashuv davrda ingliz tilining global ustunligi milliy tillar va kommunikatsiya tizimlariga kuchli ta'sir ko'rsatayotgani sabablidir. Bugungi globallashuv jarayonida ingliz tili jahon miqyosida yetakchi kommunikatsiya vositasiga aylanib bormoqda. Shu bois ushbu tadqiqotning maqsadi

ingliz tilining global til sifatida shakllanish jarayonini tahlil qilish va uning ijtimoiy hamda madaniy natijalarini aniqlashdan iborat. Shuningdek, mazkur ish ingliz tilining jahon miqyosida keng tarqalish omillari va uning zamonaviy jamiyatga ko'rsatadigan ta'sirini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot davomida ingliz tilining global mavqeini baholash, uning boshqa tillar va madaniyatlarga ta'sirini aniqlash hamda bu jarayonda yuzaga kelayotgan muammolarni ilmiy jihatdan tahlil qilish asosiy vazifalar sifatida belgilandi. Shu bilan birga, ingliz tilining xalqaro aloqa vositasi sifatidagi o'rni, uning ta'lim, ilm-fan va madaniyat sohalariga ta'siri ham alohida e'tibor qaratiladigan masalalardan biri hisoblanadi.

Asosiy qism. Universitet dasturlarining ingliz tilida olib borilishi tobora kengayib bormoqda, Sofiyadan Stokgolmga va Sevillegacha har qanday haftada The European gazetalaridagi e'lonlar bunga guvohlik beradi. (Eve Schnitzer, 1995).

Izlanishlarga ko'ra, ingliz tili ilmiy va ta'lim sohasida global vositaga aylanib bormoqda. Universitetlar o'z dasturlarini ingliz tilida taqdim etishga intilmoqda, bu esa talabalarga xalqaro darajada ta'lim olish imkonini yaratadi va universitetlarning jahon ta'lim bozoridagi raqobatbardoshligini oshiradi. Ular tillar xilma-xilligini oshirishni qo'llab-quvvatlaydi, ya'ni "tillar foydalanuvchilari o'rtasidagi o'zaro aloqa bir yoki bir nechta tilning boshqalarning hisobiga kengayishiga yo'l qo'ymaydigan holat" (4-bet) - bu esa til ekologiyasi deb ataladi. (Angela Mary Gayton, 2016).

Bu fikr shuni anglatadiki, til ekologiyasi yondashuvi tillar o'rtasida muvozanatni saqlashni muhim deb hisoblaydi. Ya'ni, bir tilning (ayniqsa ingliz tilining) haddan tashqari dominantligi boshqa tillarning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi kerak. Chunki har bir til o'zida noyob madaniy meros va ilmiy tajribani mujassam etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, tillar turfaligini saqlab qolishga harakat qilish nafaqat lingvistik masala, balki madaniy va ilmiy adolat masalasi hamdir. Agar barcha ilmiy va ijtimoiy jarayonlar faqat bitta til atrofida jamlansa, boshqa tillarda yaratilayotgan bilimlar va tajribalar nazardan chetda qolishi mumkin.

Bugungi kunda ingliz tili dunyodagi eng asosiy qo'shimcha til bo'lib, u lingvistik kapital (Bourdieu, 1991) sifatida qaraladi. Bu kapital boshqa kapital turlariga oson aylantiriladi. (Lin Pan*, David Block, 2011). Bu fikr ingliz tilining zamonaviy jamiyatdagi kuchli ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatini ochib beradi. Lingvistik kapital - bu til orqali qo'lga kiritiladigan imkoniyatlar to'plami bo'lib, ingliz tili aynan shunday global resursga aylangan. Shu bilan birga, ingliz tilini bilish bugungi kunda nafaqat muloqot vositasi, balki muvaffaqiyat kaliti hamdir. Ingliz tili orqali shaxs sifatli ta'lim olish, jahon darajasida ish topish imkoniyatlariga ega bo'ladi.

Aynan ingliz tilini zamonaviy til sifatida o'qitishda biz uning imperial tarix bilan bog'liq konstitutsion bog'liqligidan ajralishining birinchi va hal qiluvchi qadamini ko'ramiz. 20-asr va 21-asr davomida dunyo aholisi tobora ko'proq tilni chet tilni o'rganish orqali tushunadi - va eng ko'p hollarda bu til ingliz tili bo'ladi. (Martin A. Kayman, 2004). Bu fikrdan xulosa qilinsa, ingliz tilini global til sifatida o'qitish jarayoni uning tarixiy imperial kontekstdan mustaqil ravishda rivojlanishi va til endi faqat bir necha yirik davlatning qudrati bilan bog'liq emas, balki butun dunyo aholisi uchun universal ta'lim vositasiga aylanishini ko'rsatadi.

Xulosa. Umuman olganda, bugungi kunda ingliz tili nafaqat xalqaro muloqot vositasi, balki ilmiy, ta'limiy va iqtisodiy faoliyatlarda muhim rol o'ynovchi global tilga aylangan. Universitetlar o'z dasturlarini ingliz tilida olib borish orqali talabalarga dunyo miqyosida ta'lim olish imkonini yaratadi va jahon ta'lim bozorida raqobatbardoshligini

oshiradi. Shu bilan birga, tillar turlicligini saqlash va bir tilning dominantligi boshqa tillarning rivojlanishiga salbiy ta'sir qilmasligini oldini oladi. Bu nafaqat lingvistik, balki madaniy va ilmiy adolatni ta'minlashning asosiy sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bourdieu, P. Language and Symbolic Power. Polity, Cambridge, 1991.
2. Gayton, A. M. Perceptions about the dominance of English as a global language: Impact on foreign-language teachers' professional identity, 2016.
3. Kayman, M. A. The state of English as a global language: communicating culture, 2004.
4. Lin, P., & Block, D. English as a "global language" in China: An investigation into learners' and teachers' language beliefs, 2011.
5. Schnitzer, E. English as an international language: implications for interculturalists and language educators, 1995.